

JAHON MAMLAKATLARI TA'LIMINING TASHKIL ETILISHI VA TARAQQIYOTI MASALALARINING TAVSIF ETILISHI

QDPI Inklyuziv ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Turg'unboyeva Zulxumor Ibrohimjon qizi

Qoqon Davlat Pedagogika instituti talabalari

Boltayeva Gulsevar

Xoldoraliyeva Ra'no

Tursunova Mashhura

Abdurahimova Munisa

Meliqo'ziyeva Shahzoda

Annotasiya: Ushbu maqolada rivojlangan chet el mamlakatlarida ta'lim jarayonining tashkil etilishi masalalari va pedagog kadrlarni tayyorlash ishlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, kasb, Germaniya, Norvegiya, universitet, institute, sertifikat, malaka oshirish, konfrensiya, Amerika, metodika, stajor, o'qituvchi.

Boshqa ko'plab kasblar kabi o'qituvchilik kasbi tayyorgarligi dastlabki pedagogik ta'lim olingandagina tugamaydi. O'qituvchilarga doimiy yangilanib turuvchi talablar qo'yiladi. Professional o'qituvchi bu yangilanishlarga tabiiy ravishda o'z kasbiy darajasini doimiy oshirib borish bilan erishishi lozim. O'qituvchilarni tayyorlash uzluksiz jarayon sifatida ishga kirgunicha, ishga kirayotgan vaqti va ishlayotgan davri bosqichlarini o'z ichiga olishi kerak.

Yevropa Ittifoqining aksariyat davlatlarida (Daniya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Grestiya, Irlandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya) boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilarining dastlabki tayyorgarligi oliy o'quv yurtlarida kechadi. O'rta maktabning boshlang'ich sinflarida dars berish uchun o'qituvchilar oliy ma'lumotli bo'lishi kerak (Avstriya), Belgiya, Gollandiya bundan istisno.

O'qituvchilarning kasbiy va amaliy tayyorgarligi asosiy kurs bilan bir vaqtda(baravar usul) yoki asosiy kursdan keyingi, masalan, aspirantura

darajasida(izchil usul) olib boriladi. Baravar usul bo'yicha kirish talablariga to'liq o'rta ma'lumot to'g'risidagi attestat, ba'zi hollarda oliy ma'lumot olishga loyiqligi haqidagi sertifikat talab qilinadi. Izchil usul bo'yicha dastlabki oliy ma'lumot (universitet yoki undan boshqa)ni maxsus fan yo'nalishda egallagan talabalar muallimlikka aspirantura yoki universitetdan tashqari kurslarda tayyorlanadi.

Baravar usul o'qituvchilarining barcha ta'lim va tayyorgarligi boshlang'ich maktablarda izchil usulda yo'lga qo'yiluvchi Fransiyadan boshqa barcha davlatlarda tarqalgan. Angliyada har ikki usul ham amal qiladi, ammo maktab o'qituvchilarini tayyorlashning baravar usuli kengroq tarqalgan.

Yevropa davlatlarida o'qituvchilar malakasini oshirish tartibi

Yevropa davlatlarida buni tashkil qilishning aniq ko'rinishini tasvirlash bir necha sabablarga ko'ra qiyin kechadi:

- Ta'lim darajasidagi farqlar.
- Muqarrar va qo'shimcha ta'lim.
- Mashg'ulot turi — davomiylik va predmetlar bo'yicha.

Malaka oshirish asosan rivojlanishning ikki bosqichida kechadi (Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya, Shvetsiya). Dastavval u norasmiy va ko'ngilli ravishda, shundan so'ng ikkinchi bosqichda aniq tizimli, muqarrar ravishda bo'ladi. Odatda ta'lim barcha darajadagi maktablarda bir vaqtda olib boriladi (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya). Bungacha dastlabki shu sin- gari amaliyot boshlang'ich maktablarga yuklatilgan edi (Fransiya va Lyuksemburgda), Irlandiyada esa istisno tariqasida norasmiy mashg'ulot dastavval o'rta maktabga kiritilgan.

O'qituvchilar tayyorlanishi agentligi Angliya va Uelsda malaka oshirishning doimiy standartlarini ishlab chiqdi. Standartlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchilarga kasbiy faoliyatning har xil ko'rinishlarida yordam berish: takomillashuvning samarali rejasini tuzish va tekshirib borish, o'z-o'zini takomillashtirishga tayyorgarlik, faoliyat va bu yo'lda aniq maqsadni qo'ya olish;

— o'z-o'zini takomillashtirishda o'quvchilarning ma'lum yutuqlarga erishishi uchun maqsadni yo'naltira bilishni doimiy ta'minlash va ta'lim sifati;

— o'qituvchi mehnatining asosini professional jihatdan anglashni ta'minlash;

— uzluksiz kasbiy kamolotni rejalashtirish va o'qituvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish hamda ularning o'quvchilariga eng yuqori foyda keltiruvchi yuksak malakaviy mashqlarni taqdim qilishga ko'maklashish.

Yevropa davlatlarida pedagoglar uchun kurslarning tashkil etilish tartibi

Yevropaning bir qancha davlatlarida davomiyligi bir necha kun bo'lgan majburiy malaka oshirish haqida qaror qabul qilingan (Finlyandiya, Irlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya). Boshqa mamlakatlarda bir kunlik konferenstiyalarga ishtirok etish majburiy hisoblanadi (Belgiya va Fransiya).

Belgiyada har yili mahalliy inspektorlar tomonidan ish joylarida uyushtiriladigan ikki-uch kunlik kurslarga qatnashish majburiydir. Inspektorlar tomonidan qo'shimcha kurslar ham tashkil qilinishi mumkin, biroq ularga qatnashish majburiy emas.

Butun professional faoliyati davomida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Fransiyada o'qituvchilarga tayyorgarlik kurslarida ishtirok etish uchun(36 hafta) kredit ajratiladi. Ularga kurslarga o'z ixtiyori bilan qatnashishi huquqi beriladi. Ularning qatnashuvi ta'lim bo'yicha tuman inspektorati tomonidan rag'batlantiriladi. Niderlandiyada o'qituvchilar malakasini oshirishning qiziq o'ziga xosligi bor — ularda hatto ishsiz o'qituvchilar ham mashg'ulotlarda ishtirok etish huquqiga ega.

Yevropa Ittifoqining har bir davlatida joylarda tayyorgarlik o'tkazish uchun qanchadan pul sarflanishini aniq aytish qiyin. Biroq shuni aytish lozimki, mashg'ulotlarga ajratilgan mablag' ta'lim uchun ajratilgan umumiy mablag'ning 1 foizga yaqinini tashkil etadi.

Bir qancha davlatlarda (Angliya, Niderlandiya, Shotlandiya) o'qituvchilar tayyorgarligiga ajratilgan mablag' maktablarga beriladi. Maktablar o'z ehtiyojlarini o'zlari aniqlaydi yoki ularni mavjud vositalar, ba'zan tashqi agentlar yordamida

belgilaydilar. Bu ehtiyojni qondirish tizimini yaxshilash hamda ish sifatini oshirishga olib keladi. Hukumat zimmasida mashg'ulotlarni milliy tashabbus miqyosida mablag' bilan ta'minlash vazifasi qoladi.

O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirishni o'tkazishning asosiy tomonlari :

- o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini o'z predmeti bo'yicha oshirish;
- o'qitishning yangi usullarini o'rganish;
- tajriba almashish va tajribali pedagoglarning ta'limi;
- kompyuter malakasini o'rganish va takomillashtirish.

Asosiy zaif tomonlar:

- o'qitishning yomon usullari;
- zarur va zamonaviy adabiyotlarning etishmasligi;
- malaka oshirish institutlaridagi yomon sharoit;
- keraksiz predmetlarning ko'pligi;
- kompyuter texnologiyasini egallashining past darajasi;
- yuksak malakali pedagoglarning etishmasligi.

O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish usullari:

- chet davlatlarda stajirovka va chet el tajribasini o'rganish;
- malaka oshirish institutlariga tajribali ma'ruzachilarni jalb qilish;
- zamonaviy metodik adabiyotlarning qo'llanilishi;
- kompyuter malakalarini o'zlashtirish;
- malaka oshirish institutlarining mintaqaviy filiallarini tashkil qilish;
- o'qitishning zamonaviy usullari;
- amaliy mashg'ulotlar ustuvorligi;
- o'qituvchilar fikriga e'tibor berish;
- o'qituvchilar ehtiyojlariga katta e'tibor berish.

O'qituvchilar doimiy kasbiy rivojlanishda o'z ehtiyojlarini aniq belgilay oladilar. Ular o'qitish usullarini boshqa tajribali o'qituvchilar bilan

muhoqama qilib aniq baholay oladilar va kompyuter malakalarini takomillashtiradilar. Bir vaqtda o'qituvchilarning aksariyati ma'ruzalarni qiziq emas va zerikarli, o'qitish usullarini yomon va ba'zilar xatto malaka oshirish institutlariga qatnashish vaqtini va pulni bekorga sarflash deb hisoblaydilar.

— Vaziyatni o'zgartirishning birinchi usuli — chet el tajribasini qo'llash hisoblanadi.

— Yevropada o'qituvchilar tarkibini takomillashtirish talablarini tahlil qilish an'anasi shakllangan. Rivojlanish rejasi mavjud institutlarda takomillashish zarurati xodimlar bo'yicha yig'iladi va jamoatchilik e'tiboriga havola qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ibragimovna, Turg'unboyeva Zulxumor. "ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 131-138.
2. Qizi, Turgunbayeva Zulkhumor Ibrahimjon. "CAUSES OF HEARING DEFECTS AND DESCRIPTION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 653-656.
3. Turg'unboyeva, Zulhumor. "O'ZBEKISTONDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI." *SCIENCE PROMOTION* (2023).
4. Muhammadjonova, Dilafruz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." *Science promotion* (2023).
5. Muhammadjonova, Dilafruz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* (2023).
6. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." *Science promotion* (2023).
7. Erkinovna, Ravshanova Inoyatxon. "Drug substances and their effects on human health." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 182-188.
8. Равшанова, Иноят Эркиновна. "КЛИНИКА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ДЕМЕНЦИИ." *Science Promotion* 1.2 (2023): 153-159.

9. Sabirovna, Shermatova Yaqutxon. "KUYISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH ASOSLARI." *ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI* 1.2 (2023): 12-17.
10. Yokutkhon, Shermatova. "HEALTHY LIFESTYLE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 254-259.
11. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 3.03 (2023): 188-192.
12. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
13. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
14. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
15. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
16. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
17. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
18. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
19. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
20. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR

- IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
21. Sabirovna, Shermatova Yaquxon. "HARAKAT-TAYANCH APPARATINING MEXANIK SHIKASTLANISHLARI." *ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI* 1.2 (2023): 18-22.
 22. Ilxomovna, Raximova Muniraxon. "The role of logorhythmic in working with children with hearing impairments." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 30-34.
 23. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "THE MAIN TYPES OF HUMAN WORK AND THEIR IMPACT ON THE HUMAN BODY." *Journal of new century innovations* 20.4 (2023): 74-78.
 24. Umarova, S. M., and M. F. Raxmonaliev. "THE IMPACT OF MENTAL DISORDERS ON CHILDREN'S HEALTH." *Евразийский журнал академических исследований* 2.5 (2022): 528-531.
 25. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "CHILDREN WITH HEARING PROBLEMS NEW ATTITUDES TO EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 904-907.
 26. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "Kasbiy faoliyatda zamonaviy logopedni kompetentligini rivojlantirish yo'llari." *International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India*. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan, 2023.
 27. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "Technologies for the Formation Of The Skill Of Creative Thinking In Weak Auditory Students." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.11 (2022): 265-271.
 28. Madinaxhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan. "PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).
 29. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol* 8.1 (2020).
 30. Sobirxanovna, Makhmudova Madinaxhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
 31. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.

32. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 4.04 (2023): 187-192.
33. Эркабоева, Нигора, et al. "Педагогик маҳорат: схема ва расмларда." *Т.: "Наврўз"* (2012).
34. Erkaboeva, N., et al. "Pedagogical skills: in diagrams and pictures: Methodical manual." *Tashkent: TDPU named after Nizami* 14 (2012).
35. Эркабоева, Нигора Шерматовна. "ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ." *Ученый XXI века* 4-1 (2016).
36. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
37. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion* 1.2 (2023): 98-104.
38. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
39. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 546-548.
40. Rahimovma, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhon Mirzakhamdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).
41. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
42. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
43. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.
44. Axmatovich J. R. In vitro rearing of trichogramma (Hymenoptera: Trichogrammatidae) //European science review. – 2016. – №. 9-10. – С. 11-13.
45. Jumaev R. A. et al. The technology of rearing Braconidae in vitro in biolaboratory //European Science Review. – 2017. – №. 3-4. – С. 3-5.
46. Жумаев Р. А. Массовое размножение трихограммы на яйцах хлопковой совки в условиях биологической лаборатории и ее применение в агробиоценозах //Халқаро илмий-амалий конференция "Ўзбекистон мева-сабзавот

- маҳсулотларининг устунлиги” мақолалар тўплами. Тошкент. – 2016. – С. 193-196.
- 47.Жумаев Р. А. Значение представителей семейства BRACONIDAE в регулировании численности совок в агробиоценозах //ЎЗМУ Хабарлари. – 2017. – Т. 3. – №. 1.
- 48.Жумаев Р. А. РАЗМНОЖЕНИЯ ИН ВИТРО BACON HABETOR SAY И BRACON GREENI ASHMEAD //Актуальные проблемы современной науки. – 2017. – №. 3. – С. 215-218.
- 49.Axmatovich J. R. In Vitro Rearing of Parasitoids (Hymenoptera: Trichogrammatidae and Braconidae) //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 4. – С. 33-37.
- 50.Suleymanov B. A., Jumaev R. A., Abduvosiqova L. A. Lepidoptera Found In Cabbage Agrobiocenosis The Dominant Types Of Representatives Of The Category Are Bioecology //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 125-134.

